

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yakubova Matluba Tajiboevna SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI.....	8
2. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....	17
3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....	25
4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	31
5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	35
6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....	40
7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS.....	44
8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....	51
9. Ихтиёр Бабаназаров XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHOJIRIYATIDA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING TUTGAN UYRI.....	56
10. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O'RNI.....	62
11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	69
12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....	73
13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....	78

IQTISODIYOT

1. Karimova Madina

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

PEDAGOGIKA

1. Davletov Erkaboy Yusbovich

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

2. Usanova Zulfiya Bozorovna

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

PSIXOLOGIYA

1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

TARIX

1. Babajanova Nilufar Alisherovna

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

2. Bekchanov Doniyor

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

3. Tajiyeva Umida Rajabboevna

O'ZBEK XALQII MADANIYATIDA TABIIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

7. Marimov Muzaffar Erkinovich XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG'LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR.....	137
8. Bekchanov Doniyor AVAZ O'TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G'OYALARI.....	141
9. Sultanov Samandar Mahmud o'g'li XORAZM VOHASI VA G'ARBIY SO'G'D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....	145
10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich QUR'ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O'RNI.....	149
11. Misrbekova Makhliyo THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA'S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...	155
12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich YANGI O'ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O'ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....	161
13. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGI MARKAZIIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	167

Rayxan Madaminova-

Nukus davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

HOFIZ XORAZMIY “DEVON”IDAGI MA’NODOSH SO‘ZLAR TAHLILI<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670062>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Hofiz Xorazmiy “Devon” asarida qo‘llangan ma’nodosh so‘zlar tahlil qilinadi. Sinonimik qatorlar turkiy, forsiy, arabiy va aralash qatlamlarga ajratilib, ularning leksik-semantik xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, ushbu sinonimlar orqali yuzaga chiqqan badiiy san’atlar – tajnis, tavzi’, tazod, tanosub va boshqalar ham o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Hofiz Xorazmiy, Devon, ma’nodosh so‘zlar, sinonimiya, turkiy qatlam, forsha o‘zlashmalar, arabcha o‘zlashmalar, leksik tahlil, badiiy san’at, tajnis, tazod, tavzi’, tanosub, talmeh, inversiya.

Raykhan Madaminova-

Lecturer at Nukus State Pedagogical Institute

ANALYSIS OF SYNONYMOUS WORDS IN HOFIZ KHOREZMIY’S “DEVON”**ABSTRACT**

This article analyzes the use of synonymous words in Hofiz Khorezmi’s *Devon*. The synonymic rows are categorized into Turkic, Persian, Arabic, and mixed lexical layers, and their lexical-semantic characteristics are explored. In addition, the study examines the poetic devices that emerge through these synonyms, including paronomasia, alliteration, antithesis, proportion, and others.

Keywords: Hofiz Khorezmi, Devon, synonymous words, synonymy, Turkic layer, Persian borrowings, Arabic borrowings, lexical analysis, poetic device, paronomasia, antithesis, alliteration, proportion, allusion, inversion.

Райхан Мадаминава-

Преподаватель Нукусского государственного педагогического института

АНАЛИЗ СИНОНИМИЧНЫХ СЛОВ В «ДЕВАНЕ» ХАФИЗА ХОРЕЗМИЙСКОГО**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается использование синонимичных слов в произведении «Девон» Хафиза Хорезмийского. Синонимические ряды классифицируются по происхождению: тюркские, персидские, арабские и смешанные. Освещаются их лексико-семантические особенности. Также анализируются художественные приемы, возникающие

благодаря этим синонимам, такие как паронимия, аллитерация, антитеза, пропорция и другие.

Ключевые слова: Хафиз Хорезмий, Девон, синонимичные слова, синонимия, тюркский пласт, персидские заимствования, арабские заимствования, лексический анализ, художественные приемы, паронимия, антитеза, аллитерация, пропорция, аллюзия, инверсия.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Mumtoz adabiyotimiz tarixida Navoiyga qadar XIV asr oxiri va XV asr boshlarida o'zbek adabiyotida birinchi o'laroq mukammal devon tartib etgan shoir Hofiz Xorazmiy hisoblanadi.

Sinonimiya – bir ma'noni ifodalay oladigan, biroq shakli farqli so'zlarning mavjudligi tildir. U badiiy matnlarda muallifning uslubiy boyligini ifodalovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Hofiz Xorazmiy o'zining “Devon” asarida keng sinonimlardan foydalangan bo'lib, bu holat uning poetik tafakkuri va til imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini ko'rsatadi. Ushbu maqolada “Devon”dagi sinonim so'zlarning leksik-semantik jihatdan o'rganilishi, ularning poetik funksiyasi va tilda tutgan o'rni ko'rib chiqiladi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Tadqiqotda deskriptiv-lingvistik va struktur-semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Avval “Devon” matnida uchraydigan ma'nodosh so'zlar aniqlanib, ular kelib chiqishiga ko'ra to'rt guruhga (turkiy, arabiy, forsha, aralash) ajratildi. Har bir sinonimik qatordagi birliklar leksik va semantik jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, ularning badiiy matndagi estetik funksiyalari ham tahlilga tortildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hofiz Xorazmiy she'riyatida nutqning jozibadorligi, aniqligi va rang-barangligini ta'minlash uchun ma'nodosh so'zlardan unumli foydalana olgan. “Devon”da qo'llanilgan sinonimik qatorlarni tarixiy manbalari jihatdan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Turkcha so'zlardan tashkil topgan sinonimik qatorlar: *adoq, azoq, oyoq; ayo, ey; axshom, kecha, tun; bag'ir, ko'ks, ko'kus, to'sh; barcha, qamu, qamug'; berguchi, tangri; bikin, kabi, o'xshash; ko'rklu, chiroylu; uy, ev* kabi:

Zulf ila yuzini tilar Hofiz,

Shomda ko'rklu chun qamar ko'runur (D, I, 211).

G'ubor-i roh adoqingda bo'ldi erdi bu Hofiz,

San, ey chiroylu, magar andin ihtiroy qilursan (D, II, 74).

Ko'ks - ko'krak; ko'chma ma'noda *markaz* kabi ma'nolarni ifodalovchi turkiycha so'z. Hofiz Xorazmiy “Devon”ida *ko'kus* shakli ham uchraydi. *Ko'ks* atamasi *ko'kusga* nisbatan faol qo'llangan:

Man oh chakkan aro o'qin otsa ko'ksumga,

Yolingdin o'qi yonar o'tg'a bashoq tushar (D, I, 173).

Qaro zulfin qachonkim yod qilsam,

Ko'kus o'rta-yu ko'k uzra chiqar oh (D, II, 277).

Yuqorida ta'kidlanganidek, *ko'kus* ham “Devon”da qo'llanadi va *ko'krak* bosh ma'noda va *markaz* ko'chma ma'nolarida istifoda etilgan. Shoir ikkinchi baytda *ko'kus* va *ko'k* so'zlari orqali *tavzi'* san'atini yuzaga keltirmoqda.

To'sh. Gavdaning bo'yin bilan qorin o'rtasidagi old qismi; ko'krak; ko'chma ma'noda *bag'ir*, *siyna*; *tengqur*; *do'st*, *o'rtoq* (O'TIL, II, 249, 250) kabi ma'nolarni ifodalovchi turkiycha so'z. “Devon”da ancha faol qo'llangan. Shoir quyidagi baytda *to'sh* so'zini *tengqur*; *do'st*, *o'rtoq* ma'nolarida ishlatib, *teng* va *to'sh* so'zlari orqali *tavzi'* san'atini hosil qilgan:

Turklar orasida dilbar erursan shirin,

Kim sanga teng to'sh emasdur qo'ng'urot ila qiyot (D, I, 173).

To'sh bo'lsam aning zulfi parishonina tushda,

Hofiz biki yuz hol-i parishonni ko'rarman (D, II, 277).

Ikkinchi baytda *bag'ir*, *siyna* kabi ko'chma ma'nolarida qo'llanmoqda. Shuningdek, baytda

ishtiqoq, talmeh, tashbih, talmi' san'atlari ham uchraydi.

2. Forsiy so'zlardan hosil bo'lgan sinonimik qatorlar: *anboz, sherik; anjom, poyon; afg'on, faryod, fig'on; barbod, barham, nobud, yakson; base, besh, bisyor; baho, narx; biyobon, dasht, cho'l; boda, may, mul; diydor, rux, ruxsor, chehra; gulgun, ol; gardun, osmon; dovar, podshoh, shoh; donishmand, dono, farzona* kabi:

Nasib-i dardu g'amni baxsh etarda,
Manga san o'zgani anboz qilma (D, I, 49).
Sanga yo'qdur jahon ichra sherike,
Jamolu husn ila mumtoz sansan (D, II, 85).
Ka'ba-yi ko'yung tavofin qilmoq uchun, ey sanam,
Doimo Hofiz bikin gardundadur oyu quyosh (D, I, 266).
Xurshid-i bezavole santak manga ko'runmas,
Tokim ko'rundi ko'zga bu osmon-i olam (D, II, 36).

Donishmand dono, bilimdon ma'nosini anglatuvchi forsiy o'zlashma hisoblanadi. Ushbu atama eski o'zbek tilida ham, hozirgi o'zbek tilida ham aynan yuqoridagi ma'noda uchraydi. Fors tilida *olim, bilimli, dono* ma'nolarini anglatadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu so'zga, "Mavjud ilm-u hikmatlarni egallagan, ba'zi voqea-hodisalar haqida oldindan bashorat qila oladigan; bilimdon; olim; dono" (O'TIL, II, 644) deb ta'rif berilgan. Hofiz Xorazmiy "Devon"ida ham yuqoridagi ma'nolarda qo'llanilgan. Asarda faqat bir o'rinda kuzatiladi:

Oftob-i jamolinga oshiq
Bo'lg'ali bo'ldi omiy donishmand (D, I, 84).

Keltirilgan baytda ijodkor *bo'lg'ali* va *bo'ldi* so'zlarini birgalikda qo'llab, tavzi' va ishtiqoq san'atini yuzaga chiqarmoqda. Shoirning yuqoridagi baytda o'zagi bir bo'lgan so'zlarni ikki va undan ortiq keltirishi boisi shundaki, odatda uning radifsimon jarangdoshligiga va ayni choqda, qarama-qarshi ma'no tashishi bilan ko'zga tashlanadi. Qolaversa, inversiya hodisasi ham mavjud. "Devonu lug'otit turk"da mazkur so'zning *жъпык билъа* (МК, Индекс-лугат, 145) varianti uchraydi.

Dono. *Dono*, bilimli ma'nosini anglatuvchi forsiy o'zlashma. "Devon"da *donoyiy* va *donoliq* so'zlarining yasalishida asos vazifasini o'tagan.

Ishqning shatranjini donolar o'ynadi, vale
Utsa utsunlar sani, ey go'l-u nodon, o'ynag'il (D, II, 5).

Shoir baytda *utsa* va *utsunlar* so'zlarini maxsus qo'llab, badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional-ekspressivlik bag'ishlash maqsadida assonans hodisasidan foydalangan. *Go'l-u nodon* so'zlari asosida esa tavfiq san'atini, shuningdek, *dono* va *nodon* so'zlari vositasida tazod san'atini yuzaga keltirgan.

Farzona. Hofiz Xorazmiy "Devon"ida *farzona* o'zlashmasi *dono*, *fozil*, *donishmand* va mislsiz, tengsiz ma'nolarida ishlatilgan:

1) *dono*, *fozil*, *donishmand*:
Farzin bisot o'lg'on o'shul shoh qoshinda,
Bu tavr ila siz Hofiz-i farzonani izdang (D, I, 290).

2) *darvesh*:
Goh masjid davrida Hofizman-u mehroboxon,
Goh mayxona ichinda oshiq-i farzonaman (D, II, 97).

Ijodkor ikkinchi baytda *Hofizman-u* va *mehroboxon* o'zlashmalari orqali tavfiq san'atini, *goh masjid* va *goh mayxona* leksemalari asosida tavzi' san'atini qo'llamoqda.

Donishmand, *dono* o'zlashmalari hozirgi kunda ham faol ishlatiladi. *Dono* va *farzona* so'zlari qizlarga ism sifatida ham qo'yiladi.

3. Faqat arab tiliga xos so'zlardan sinonimik qatorlar hosil bo'ladi: *aqd, nikoh; aroq, sharob; badan, jism; bashar, inson; vajh, mujib, sabab; davlat, mol, nuqud, g'ino; dunyo, koinot, olam, ofoq; ziyo, nur, shu'la; g'am, g'ussa; iqbol, saodat, sa'd; kalom, nazm, qavl, hadis; lazzat, ta'm, maza; firoq, furqat, g'urbat, hajr, hijron* kabi:

Visolin izda-yu kuydi ko'ngul dard-i firoqinda,

Muhabbat o'tina o'rtandi jon ham ishtiyoqinda (D, I, 42).

Magar ro'z-i qiyomatda erur vasling manga ro'ziy,
Kechadur zulfu yuzung-u furqatindin sol-u ham mohim (D, II, 54).

Sham'-i jamoling birla san parvonatak jonlar yoqib,
G'urbat o'ti birla manim bag'rimni biron qilmag'il (D, II, 19).

Zoriy zor mani hajr ila o'lturmas edi,
Gar quloq tutsa edi bir nafase zoring'a (D, I, 21).

Qadr-i visolingni chu man bilmadim ersa qahr etib,
Hijroning o'tig'a bu jonimni sazo qilding yana (D, I, 33).

Iqbol. Baxt, omad ma'nolarini anglatuvchi arabiy o'zlashma. Hozirgi o'zbek adabiy tilida faol qo'llanadi. Ayollarga ism sifatida ham qo'yiladi. Hofiz Xorazmiy "Devon"ida yuqoridagi ma'noda istifoda etilgan.

Iqbol-u saodat eshigimga kelur erdi,

Tush bo'lsa manga tushda o'shul davlat-i bedor (D, I, 221).

Ijodkor ushbu o'rinda *iqbol* so'zini *baxt* ma'nosida qo'llamoqda va natijada so'z takrori oldi olingan. Iqbol va saodat so'zlari orqali esa tavfiq san'atini, baytda tush va tushda so'zlari vositasida esa tajnis san'atini mohirona qo'llamoqda.

Saodat. "Devon"da *baxtiyorlik*, *baxtlilik*; *toli'*, *iqbol*, *yaxshi ahvol* (kishida) ma'nolarini ifodalab kelgan arabcha so'z. Xorazmiy she'riyatida ancha faol qo'llanilgan.

Saodat bersa gar yoriy, manga yoriy qilur jonon,

Manga yori qilur jonon, saodat bersa gar yoriy (D, II, 227).

Keltirilgan baytda *saodat* o'zlashmasi birinchi misrada *toli'*, *iqbol*, *yaxshi ahvol* ma'nosida, ikkinch misrada esa *baxtiyorlik*, *baxtlilik* ma'nosida istifoda etilgan holda fikrning ta'sirchan chiqishiga erishilgan. Va bu so'z orqali tajnis san'ati yuzaga keltirilgan. *Yori* va *yoriy* so'zlarini birgalikda keltirib, ishtiyoq san'atini qo'llagan. Baytda she'rning birinchi misrasida keltirilgan ikki so'z birikmasi keyingi misrada o'rni almashinib takrorlangan. Natijada shu birikmalardagi fikr ta'kidlanib, ularning ma'nosi ham yangilanadi, misra mazmuni ham takomillashadi. Bu teskari qilib takrorlash ma'nosini ifodalovchi tardu aks she'riy san'atidir.

Ko'rinadiki, o'zbek tili, adabiyoti va madaniyatining to'la huquqi uchun kurashuvchi, jasoratli va otashin shoir Hofiz Xorazmiy ishqiy va falsafiy she'riyatida bir-biridan ta'sirchan tajnis-u tavzi'lar, tashbeh-u tazodlar va ko'plab boshqa badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalangan.

Sa'd. Saodat, baxt va *iqbol* ma'nosini anglatuvchi arabiy o'zlashma. Eski o'zbek tilida, xususan, Hofiz Xorazmiy she'riyatida yuqoridagi ma'noni ifodalash uchun qo'llangan. "Devon"da nafaol ishlatilib, faqat bir o'rinda kuzatiladi:

Qironi sa'd bo'lg'ay oshiq uchun

Yuzung chun moh-u qoshingdur tarozu (D, II, 128).

Ushbu baytda mazkur so'z saodat ma'nosida qo'llanmoqda, shoir *yuzung* va *qoshing*, *moh* va *tarozu* o'zlashmalari orqali tanosub, ya'ni tavfiq, shuningdek, ma'shuqaning a'zolari aniq narsalarga, yuzi oyga, qoshi taroziga o'xshatilib, tashbih san'atini yuzaga chiqarmoqda.

Tanosub haqidagi nisbatan kengroq ma'lumot Atoulloh Husayniyning XV asrda yaratilgan "Badoyi' us-sanoyi'" asarida berilgan bo'lib, muallif ushbu san'atga shunday ta'rif beradi: "Ani tanosub, tavfiq, iytifol va talfiq ham derlar. Ul andog'durkim, kalomda anga munosib hodisa va nimalarni jam' qilurlar..." Shuningdek, asarda tanosub san'atining darajalari va nomlanishi bilan bog'liq muhim ma'lumotlar ham keltirib o'tilgan [1].

4. Turkcha va forsha so'zlardan tarkib topgan sinonimik qatorlar: *bol* va *angabin*; *bo'sag'a* va *ostona*; *kokil*, *soch* va *gesu*, *zulf*; *ko'z* va *diyda*; *ko'p* va *base*, *bisyor*; *yoruq* va *furug'*; *tikan* va *so'zan*; *o'q* va *tir*; *tuproq*, *tufroq* va *xok*; *tilak* va *dilxoh*, *orzu*, *umid*; *ichmoq* va *no'sh etmoq*; *uyqu* va *xob* kabi:

Tushumda to'sh bo'la ul oftob yuzi teyu,

Ko'zumda yo'q ekan uyqu asir-i xob bo'lur (D, I, 155).

Yoruq. Bu so'z turkiycha bo'lib, *yorug'*, *nurli*; *ko'chma* ma'noda *toza*, *pok* kabi ma'nolarni ifodalaydi. Hofiz Xorazmiy "Devon"ida *yoruq* ko'chma ma'noda ishlatilib, *toza*, *pok* ma'nosida

istifoda etilgan. Nofaol ishlatilgan bu soʻz faqat bir oʻrinda uchraydi:

Vahkim, koʻrabilmasman oʻshul koʻnglum olonni,
Jonim tilaki, koʻz yoruqi, qavli yolonni (D, II, 180).

Ijodkor keltirilgan baytda *olonni* va *yolonni* soʻzlari misolida assonans hodisasini yuzaga keltirgan. Assonans qofiyadosh soʻzlar tarkibida kelib, sheʼriy nutqqa koʻtarinki ruh va oʻziga xos musiqiylik baxsh etgan.

Alisher Navoiy asarlarida *yoruq* soʻzi *yorugʻ*, *nurli*; *koʻchma maʼnoda toza, pok; siniq, singan; jarohatli, yarali* kabi maʼnolarda faol qoʻllangan:

Yoruq I – 1) *yorugʻ*, *nurli*:

Kulbasi oy shamʼidin oʻlsa yoruq,
Eshigi yel ilgidin oʻlsa ochuq. Hayratul-abror (TM-101).

2) *koʻch. toza, pok*:

Sharʼiy hiylalari karhidin koʻngli ochuq, fuqaho tazvirlari tiragaridin zamiri yoruq.
Mahbubul-qulub (TM-21).

Yoruq II – 1) *siniq, singan*:

Chok koʻnglum xoʻblar koʻngli aro topti shikast,
Vah, butun qolgʻaymu yoruq shisha sandonlar aro? Badoeʼul-bidoya, I-43.

2) *jarohatli, yarali*:

Qading qoshinda nechuk sarv oʻzin degay ozod
Ki, sabzrang qulingdur, aning ayogʻi yoruq. Badoeʼul-vasat, V-230 [2].

Keltirilgan misollardan maʼlumki, Alisher Navoiy asarlari tilida *yoruq* soʻzining maʼnosi kengaygan. Mazkur soʻz *yoruqkoʻngulluk* soʻzining yasallashida asos vazifasini oʻtagan.

Furugʻ. Mazkur soʻz eski oʻzbek tiliga fors tilidan oʻzlashgan. Hofiz Xorazmiy “Devon”ida *yorugʻlik, nur* maʼnolarida istifoda etilgan. Asarda nofaol qoʻllanilgan *furugʻ* faqat ikki oʻrinda keltirilgan:

Murod qayda topa bilgaman jamolingdin,
Chun ul furugʻ-i jamoling manga hijob boʻlur (D, I, 159).

Keltirilgan baytda shoir jamolingdin va jamoling soʻzlarini birgalikda qoʻllab, ishtiyoq sanʼatini yuzaga chiqarmoqda.

Soqiy yuzindin agar topsam edi bir furugʻ,
Topgʻan edim ul zamon kulli jahondin qarogʻ (D, I, 278).

Bu keltirilgan baytda ijodkor ishtiyoq sanʼatini yuzaga keltirish uchun *top* soʻzidan oʻrinli foydalanadi.

5. Sinonimik qator oʻzbekcha va arabcha soʻzlardan tuziladi: *bilig va ilm; bol va asal; bulut va sahob; yemak va qut; yozi va sahro; kam, oz va qalil; kecha, oxshom, tun va layl; uchmoq va jannat; oʻlum va ajal; quyosh va shams; chogʻ va vaqt, zamon, lahza, mahal, nafas, fursat; choqir, ichku va aroq, sharob; ev va hujra* kabi:

Kuchay erur jon-u jahon birla yemak qaygʻusini,
Jon-u jahondin kechsaman boʻlgʻaymu oson qaygʻusi (D, II, 208).

Jon toʻtiysi qut izdab tor ogʻzi bila koʻzin
Savmishdur oʻshandinkim, bodom ila shakkardur (D, I, 100).

Bilig erur biligsizlik muhabbat yoʻlida bilsang,
Zihi dono oʻshul oshiqkim erur ishq nodoni (D, II, 203).

Ilm soʻzin soʻrsangiz borning olimlari,
Oshiq-u qalloshimiz, ilmdamiz omimiz (D, I, 233).

Uchmoq soʻzi turkcha soʻz boʻlib, Hofiz Xorazmiy “Devon”ida *jannat* maʼnosida istifoda etilgan. Nofaol qoʻllanilgan bu soʻz faqat bir oʻrinda uchraydi:

Havo-yi ishqing ila zarra son uchmoq tilar koʻnglum,
Jamoling mehri birla qil oni, ey jon, sabukbore (D, II, 230).

Asarda *uchmoq* soʻzining forscha *bihisht, firdavs*; arabcha *jannat, jannatu-l-maʼvo, ravza, rizvon, xuld* kabi muqobil variantlari uchraydi.

Jannat varianti esa oʻttiz sakkiz oʻrinda istifoda etilgan:

Jannat erur yuzungu la'lingdur ob-i kavsariy,

Jannat-i mav'ud ila ul ob-i kavsar qandadur (D, I, 112).

Jannat so'zi. Eski o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan. Bu arabcha so'z *çannat(un)* shakliga ega; asli "yashirdi" ma'nosini anglatuvchi *çanna* fe'lidan hosil qilinib, "bog'" ma'nosini anglatuvchi *çann(un)* masdarining "yakka", "bir dona" ma'nosini ifodalovchi *-t* (ta marbuta) qo'shimchasi bilan hosil qilingan shakli bo'lib, arab tilida *al çannatu* tarzida *al* aniqlik artikli bilan ishlatilib, "begunoh kishilarning ruhi narigi dunyoda rohat-farog'atda yashaydigan makon", "bihisht" ma'nosini anglatadi; ona tilimizga bu so'z aniqlik artiklisiz qabul qilingan. O'zbek tilida *jannat* so'ziga "joy", "maskan" ma'nosini anglatuvchi arabcha *makon* so'zini qo'shib, *jannatmakon* tarzida ishlatish o'rinli emas (O'TEL, II, 120, 121).

Quyosh. "O'z atrofida aylanuvchi hamma osmon jismlariga yorug'lik va issig'lik taratadigan planeta". Qadimgi turkiy tilda "jazirama", "eng issiq harorat" ma'nosini anglatgan. Aslida quyash tarzida talaffuz qilingan; keyinchalik o'zbek tilida *a* unlisi *â* unlisiga almashgan: quyash > quyâsh tarzida. Planeta nomi sifatida ishlatilishi ma'no taraqqiyoti natijasida qadimgi turkiy tildayoq yuzaga kelgan: "eng issiq harorat" - "issiqlik taratuvchi samoviy jism" (O'TEL, I, 572).

Hofiz Xorazmiy "Devon"ida faol istifoda etilgan. *Quyosh planetasi; quyoshdan taraluvchi nur, issiqlik* ma'nolarida qo'llanilgan:

Quyosh har nechakim ko'rkludur, zavoli bor,

Aning quyosh yuzi uzra yo'q zavol-i jamol (D, II, 28).

Shoir keltirilgan baytda so'zlarning grammatik qoidaga muvofiq bo'lgan odatdagi o'rnini almashtirib, inversiya hodisasini, undan tashqari tajnis, tazod san'atlarini mohirona qo'llagan.

Quyosh atamasi hozirgi o'zbek tilida faol qo'llanadi. Ma'no kengayishi ham kuzatiladi. Erkaklarga ism sifatida ham qo'yiladi. Quyosh so'zi *quyoshlama, quyoshli* so'zlarining yasallishida asos vazifasini o'tagan.

Shams. Eski o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan. Hozirgi o'zbek tilida *shams* so'zining ma'nosi biroz kengaygan. Erkaklarga ism sifatida ham qo'yiladi. Hofiz Xorazmiy "Devon"ida nafaol istifoda etilib, faqat uch o'rinda uchraydi:

Shohing qaytaribturur yuzni jafo sari tedi,

Shams-i jahong'a ul yomon ro'y taqi qafu bilur (D, I, 196).

Keltirilgan baytda *shams* o'zlashmasi *quyosh, oftob* ma'nosida qo'llanilgan. Adib shohing va shamsi so'zlari orqali tavzi' san'atini, yuz va ro'y, jafo va qafu so'zlari misolida tanosubni, undan tashqari talmi' san'atini yuzaga keltirgan:

Zarrason tolib-i diydor bo'l emdi Hofiz,

Chunkim ul yor ko'rundi sanga shams-i Tabriz (D, I, 238).

Ushbu baytda shoir she'r misralarini turli tillarda bitishni nazarda tutuvchi talmi' san'atini, inversiya hodisasini, talmeh san'atini qo'llagan.

6. Forscha va arabcha so'zlardan hosil bo'lgan sinonimik qatorlar. XIV-XV asr eski o'zbek tilida arab va fors tili leksikasi sezilarli qatlamni tashkil qilgan. "Devon" leksikasida o'zga tillardan o'zlashgan quyidagi sinonimlar shular jumlasidandir: *band va qayd; bechora, xojatmand va muflis, muhtoj, faqir, qallosh; gunoh va ayb, vubol, jurm, nuqson, xato; daryo, bahr, muhit; dud va duxon; nodon va ahmaq; do'st, yor, oshno, hamdam, hamrah va rafiq; surma va kuhl; naxjir, ohu va g'azol; shogird va murid* kabi.

Ustod jodu ko'zi ta'lim-i g'amzasing'a

Shogird bo'ldi jondin mufti-yu ham mudarris (D, I, 255).

Bu Hofiztak qani ishqing muridi,

Aytg'il ushbu dam piru javondin (D, II, 111).

Nag hazar qilmas ko'zum yoshindin ul tol bo'ylu yosh,

Chun ko'zum chashmasida daryo-yi ummon ko'runur (D, I, 150).

Bahr-i muhit ichra nishon sazovor emas,

O'zungni benishon qil-u bas benishon tila (D, I, 25).

Naxjir. Kiyik, ohu ma'nolarini anglatuvchi forsiy o'zlashma. Hofiz Xorazmiy "Devon"ida ham shu ma'noda ishlatilgan bo'lib, faqat bir o'rinda uchraydi:

Tilasang o'qing otg'ali sayd yonig'a,

Ravon kelur o'qinga pesh ul zamon naxjir (D, I, 214).

Ijodkor bu baytda *naxjir* o'zlashmasi orqali tashxis san'atini yuzaga keltirgan.

Ohu. Forscha kiyik ma'nosini anglatuvchi so'z. "Devon"da *naxjir* o'zlashmasiga nisbatan faol istifoda etilgan:

Sher shikor uchun chiqib ohuni sayd etar, vale

Bas ajab ohudur bukim sher shikor kelturur (D, I, 148).

Keltirilgan baytda shoir bir xil undosh tovushlarni takror qo'llab, alliteratsiya, ya'ni tavzi' san'atini, *sher* va *shikor* so'zlarini takror keltirib, takrir san'atini qo'llagan. Takrorlash vositasida so'z ma'nosini va uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatishga erishgan. *Shikor* va *sayd* o'zlashmalari asosida esa tanosub san'atini, shuningdek, talmi' san'atini ham uchratamiz. Va yana ruju' san'atini ham kuzatish mumkin. Bu san'at she'riyatda shoirning oldingi misra yoki baytda ifodalagan fikri, qo'llagan badiiy tasviriy vositasidan qaytgandek bo'lib, keyingi misra yoki baytda unga qaraganda kuchliroq ifoda, she'riy san'atni keltirish yoki oldingi fikrni aniqlashtirish va to'ldirish usulidir [3]. Buni *ohuni* va *vale*, *bas ajab ohudir* misolida ko'rishimiz mumkin.

G'azol. Bu arabiy o'zlashma *kiyik*, *ohu* ma'nolarida qo'llangan bo'lib, "Devon"da ushbu so'z faqat bir o'rinda kuzatiladi:

Ko'z qarartur jumla arbobi maoniy so'zuma,

Ul g'azol uchun qachonkim aytsam Hofiz g'azal (D, II, 24).

Ushbu baytda ijodkor g'azol o'zlashmasi asosida tashxis san'atini, Hofiz o'zlashmasi orqali talmeh san'atini, bundan tashqari talmi', inversiya hodisasini va tazmini muzdavaj san'atlarini yuzaga keltirgan.

7. Turk, fors va arab tillariga xos so'zlar sinonimik qatorni tashkil etadi. "Bu jarayon boshqa tillardan narsa-buyum, tushuncha bilan birga uni ifodalovchi so'zning kirib kelishi yoki boshqa tillarga oid sinonimlarning o'zlashishi bilan shu so'zga sinonim bo'lgan o'z qatlam so'zining iste'moldan chiqib ketishi kabi omillar asosida sodir bo'ladi" [4]

Tadqiqot obyekti bo'lgan "Devon"da o'zlashgan so'zning ta'sirida turkiy so'zlar iste'moldan chiqmaydi. Masalan: *iz*, *nishon*, *alamat*, *asar*; *yel*, *bod*, *sabo*; *ko'z*, *chashm*, *nazar*; *o'y*, *xirad*, *aql*, *fikr*; *tong*, *bomdod*, *subhidam*, *sahar*; *kishi*, *mardum*, *odam*, *ins*, *inson*, *bashar*; *yulduz*, *sitora*, *kavkab*; *eng*, *yuz*, *ruxsor*, *chehra*, *jabin*, *oraz*, *siymo*, *tal'at*, *uzor* kabi.

Oshiqi har nechakim yel biki yugurub yeladur,

Yori eshigina yetishkan aro lang bo'lur (D, I, 156).

Tegay edim bu dardni bod-i sabog'a man, vale

Yor qoshing'a borg'uchi bod-i sabo topulmadi (D, II, 154).

To'lun oy tobonini o'pgan uchun bo'lub aziz,

Oti yulduzlar arosinda mah-i tobon erur (D, I, 118).

Xalq-i jahon gadoy erur, husn-u jamola boysan,

Barcha sitoradur, taqi o'rtada to'lun oysan (D, II, 92).

Ravshan o'shaning oy yuzin ko'rgali ko'zdin,

Mehrinda ravon kavkab-i sayyora qilurman (D, II, 94).

Tong "kun chiqish payti, subhidam, sahar, azon; ko'chma ma'noda biror narsaning boshlanish payti, ilk davri;" (O'TIL, II, 145) ma'nolarini anglatuvchi turkiycha so'z. Hofiz Xorazmiy "Devon"da faol qo'llanilgan:

Visoling kechasi yuz tong bo'lubdur

Bu so'z xalq-i jahong'a tong bo'lubdur (D, I, 95).

Baytdagi *tong bo'lubdur* misoli orqali tajnis san'atini, *kecha* va *tong* antonimlari asosida tazod san'atini, shuningdek, talmi' san'atini yuzaga keltirgan.

Subhidam bedor bo'lub tong nasimi tong bila,

Qaddu haddin ko'rgali sarv-u gulistondin kechar (D, I, 172).

Shoir ushbu baytda ikkita *tong* so'zi-omonim orqali tajnis san'atini, subhidam va tong so'zlari asosida tanosub san'atini, qolaversa tashbih, talmi', tavzi' san'atlarini ham qo'llagan.

Bomdod. *Tong*, *tongotar* ma'nosini ifodalovchi forsiy o'zlashma faqat bir o'rinda kuzatiladi:

Kim aning savod-i zulfu yuzina nazar qilursa,
Ruhu zulfi so‘zi birla kecha shom-u bomdodi (D, II, 157).

Adib baytda ma’no jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi *kecha* va *shom* so‘zlari vositasida obrazli ifodalar yaratib, tanosub san’atini, ma’no jihatdan o‘zaro zid, qarama-qarshi bo‘lgan *shom-u bomdod* o‘zlashmalari misolida tazod san’atini, shuningdek, takrir, talmi’ san’atlarini yuzaga keltirgan.

Sahar. Tong, tong chog‘i, bomdod ma’nolarini ifodalovchi arabiy o‘zlashma. Hofiz Xorazmiy “Devon”ida yuqoridagi ma’noda faol ishlatilgan:

Sahar ohimdin aning zulfi parishon bo‘ldi,
Sunbul-i tozag‘a xush kelmadi chun bod-i sahar (D, I, 228).

Hofiz Xorazmiy *sahar* so‘zini bayt boshida va oxirida keltirib, radd-ul-ajuz al-as-sadr san’atini qo‘llagan. Anvar Hojiahmedovning ta’kidlashicha, radd-ul-ajuz al-as-sadr - bir xil ma’nodagi yoki shakldosh ikki so‘zni baytning turli o‘rinlarida keltirish san’atidir [5]. Bundan tashqari ijodkor *zulf* va *sunbul* so‘zlari orqali tanosub, *sahar* va *sunbul* so‘zlari orqali tavzi’, shuningdek, talmi’ san’atlarini yuzaga keltirgan.

XULOSA

Hofiz Xorazmiy “Devon”i tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu bebaho yodgorlik tili g‘oyat soddadir. Adib ma’nodosh o‘zlashmalarni ham har bir satrda turli maqsadda istifoda etgan. Mana shu sinonimlar orqali badiiy san’atlarni yuzaga keltirgan va so‘zlarni takror qo‘llamaslikka erishgan.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Sabitova T. Navoiy ijodida badiiy san’atlar // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES
2. VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021. ISSN: 2181-1385 (Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723). – B. 1086.
3. Юсуфов Б . Навоий тили луғати. Беш жилдли. II жилд. – Тошкент: Sharq, 2020. – Б. 68-69.
4. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 47.
5. Primov A.I. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari leksikasi: Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – Б. 27.
6. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 85.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000